

SHARQ VA G'ARB MUTAFAKKIRLARI MEROSIDA YOSHLAR TARBIYASI MASALALARI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.039>

Umidaxon Boltaboyeva
QDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq va G'arb mutafakkirlarining yoshlarimiz tarbiyasi haqidagi qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Xususan, Sharq allomalari bo'lgan- Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy hamda G'arb faylasuflari - Platon, Aristotel, Jan-Jak Russo, Immanuel Kant qarashlari asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy kamolotga yetkazish masalalari ham yoritiladi. Tadqiqot natijasida Sharq va G'arb tafakkurida yoshlar tarbiyasining umumiy va bir-biridan farqli jihatlari aniqlanib, ularning zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat, axloq, komil inson, ta'lim, Sharq mutafakkirlari, G'arb faylasuflari, pedagogik meros

ISSUES OF YOUTH EDUCATION IN THE HERITAGE OF EASTERN AND WESTERN THINKERS

Umidakhon Boltaboyeva
KSU

Abstract: This article provides a comparative analysis of the views of Eastern and Western thinkers on the education of our youth. In particular, the issues of bringing the growing young generation to spiritual, moral, intellectual and physical maturity based on the views of Eastern scholars - Abu Nasr Al-Farabi, Abu Rayhan Al-Beruni, Abu Ali Ibn Sina, Alisher Navoi and Western philosophers - Plato, Aristotle, Jean-Jacques Rousseau, Immanuel Kant are also covered. As a result of the study, common and different aspects of youth education in Eastern and Western thought are identified, and their significance in the modern education system is revealed.

Keywords: youth education, spirituality, morality, perfect person, education, Eastern thinkers, Western philosophers, pedagogical heritage

Yoshlar tarbiyasi, komil inson tarbiyasi masalasi insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Bizga ma'lumki, har bir jamiyat o'zining ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarini yosh avlod orqali davom ettiradi. Shu bois

Sharq va G'arb mutafakkirlari asarlarida barkamol insonni tarbiyalash masalasi markaziy o'rin egallaydi.

Sharq mutafakkirlari merosida yoshlar tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Sharq allomalari va mutafakkirlari ta'lim va tarbiya masalasiga yoshlarga nafaqat ilmiy, balki ma'naviy-axloqiy nuqtai nazardan ham yondashganlar.

Abu Nasr Forobiyning jamiyat taraqqiyotida komil inson tarbiyasiga qarashlariga to'htaladigan bo'lsak, Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat taraqqiyoti komil inson tarbiyasiga bog'liqligini ta'kidlab o'tadi. Uning fikricha, insoniyat baxt-saodatga ilm va ezgu axloq orqali erishadi. Tarbiya jarayonida esa aqlni rivojlantirish va fazilatlarni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy ham yoshlarni ilmga qiziqtirish, tajriba va kuzatishga asoslangan ta'limni yo'lga qo'yish zarurligi g'oyalarini ilgari surgan. U bolalarning yoshlik xususiyatlarini inobatga olish, ta'limni bosqichma-bosqich tashkil etish kerakligi g'oyasini qo'llab-quvvatlagan.

Abu Ali ibn Sino esa tarbiyani inson kamolotining asosiy omili sifati deb biladi. U bolalarni jamoada o'qitish, ularning qobiliyatini aniqlash va shunga mos ravishda kasb-hunarga yo'naltirish zarurligini ta'kidlab o'tgan. Ibn Sinoning fikricha, jismoniy tarbiya ham ma'naviy tarbiya kabi muhim hisoblangan.

Alisher Navoiy merosida komil inson g'oyasi haqida gap ketganda quyidagilarni aytish mumkin.

Alisher Navoiy asarlarida yoshlarni halollik, adolat, mehr-shafqat ruhida tarbiyalash g'oyasi ilgari suriladi. Uning "Xamsa"sida va boshqa asarlarida komil inson timsoli orqali yuksak axloqiy fazilatlar targ'ib qilinadi.

Sharq mutafakkirlari uchun ta'lim- tarbiya - bu nafaqat bilim berish, balki inson qalbini poklash, insonni jamiyatga foydali shaxs qilib voyaga yetkazish jarayoni hisoblangan.

G'arb falsafasida ham yoshlar tarbiyasi masalasi muhim juda muhim o'rin tutadi.

Buni Platon va Aristotel ta'limotida ko'rib chiqamiz. Platon "Davlat" asarida tarbiyani davlat siyosatining asosiy ustuvor vazifasi sifatida ko'radi. Ularning fikricha, yoshlar jismoniy va musiqiy tarbiya orqali uyg'un rivojlanishi kerak.

Aristotel esa tarbiyada me'yoriy va muvozanat tamoyilini ilgari surgan. U axloqiy fazilatlarni odat va mashqlar orqali shakllanishini ta'kidlaydi.

Jan-Jak Russoning "Emil yoki tarbiya to'g'risida" asarini oladigan bo'lsak asarda bolani tabiiy rivojlanish qonunlariga mos ravishda tarbiyalash g'oyasini ilgari suradi. Unga ko'ra, bola erkin muhitda, tabiat bilan uyg'unlikda kamol topishi lozim deyilgan.

Immanuil Kant tarbiyani insonni axloqiy qonunlarga bo'ysunishga o'rgatish jarayoni sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, tarbiya insonni "insoniylikka yetaklovchi" asosiy vositadir.

Gʻarb mutafakkirlari tarbiya jarayonida erkinlik, individual yondashuv va axloqiy ongni shakllantirish masalalariga alohida eʼtibor qaratganlar.

Sharq va Gʻarb mutafakkirlari qarashlarida quyidagi umumiy jihatlar mavjud va uni koʻrib chiqamiz. Ushbu umumiy jihatlar: tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi roli; axloqiy fazilatlarni shakllantirish zarurati; ilm va maʼrifatning ustuvor ahamiyati dan iborat.

Farqli jihatlar esa sharqda koʻproq maʼnaviy-ruhiy kamolot va komil inson gʻoyasi ustuvorligi, gʻarbda esa individualizm va shaxs erkinligi masalasi yetakchi oʻrinda ekanligida namoyon boʻladi.

Sharq mutafakkirlari ham Gʻarb mutafakkirlari ham yoshlar tarbiyasiga oid qarashlarda barkamol shaxsni shakllantirishni kabi umumiy maqsadni oʻz oldilariga maqsad qilib qoʻysalar-da, biroq ulardagi metodologik tushunchalar, tarbiya elementlari va taʼlim jarayonlarining tabiati jihatidan farq qiladi. Sharq mutafakkirlari pedagogik merosi maʼnaviyat, axloq va jamiyat bilan bogʻliq boʻlsa, Gʻarb mutafakkirlari pedagogik merosi metodik, tizimli va individual rivojlanishga urgʻu beradi. Bugungi taʼlim jarayonida bu gʻoyalarni uygʻunlashtirish yoshlarni zamon talablariga mos shaxs sifatida tarbiyalash uchun muhim manbaga aylanishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Sharq va Gʻarb mutafakkirlari merosi yoshlar tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarini boyitadi. Ularning qarashlari bugungi globallashuv sharoitida har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, yuksak maʼnaviyatli yoshlarni tarbiyalashda muhim metodologik manba boʻlib xizmat qiladi. Zamonaviy taʼlim tizimi esa ushbu boy merosdan samarali foydalanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va sanʼat, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz maʼnaviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Oʻzbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi maʼruzasi. Xalq soʻzi. 2017-yil 4-avgust.
2. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Toshkent: Fan, 1993.
3. Xoldorov, N. Buyuk mutafakkirlar maktabi. Toshkent: Maʼnaviyat, 2018.
4. Karimov, I.A. Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.